

## OIDIUM KASALLIGI VA UNGA QARSHI KURASH

*To'raboyev Mirzaraxmat Baxtiyor o'g'li  
Nomonova Muxtasar Baxodir qizi*

**Annotatsiya.** Hozirgi vaqtda O'zbekiston sharoyitida tok kasaliklari keng tarqalgan bolib,ular uzum sifatini buzadi, novdalari kuchli zararlantiradi va ob-havo sharoitiga qarab hosildorlikni 27-70% gacha kamaytradi. Bu kasaliklarga qarshi kurashish muhim masalalardan biri bolib kelmoqda. Ushbu maqolada oidium kasaligi va unga qarshi kurash haqida malumot berilgan .

**Kalit so'zlar:** oidium kasaligi, Uncinula necator Burill zamburug'i

Oidium yoki un shudiring kasaligi. Kasalikni Uncinula necator burill zamburug'i keltirib chiqaradi. Oidium kasaligi Respublikamizda juda keng tarqalgan va xavfli kasalik hisoblanadi. Tokning un shudiring kasaligi uzumlar ularning tarkibidagi qand moddalari miqdori 8% gacha bolguniga qadar zararlashi mumkun. Erta zararlangan uzumlar qurib mavsum oxirigacha to'kilmasdan tokda osilib qoladi. Keyinroq zararlangan uzumlar chatnaydi va urug'igacha yirildi, saprotrop zamburug'lar tasirida chirib ketadi. Mevalar qizil yoki qora navlarning uzumlari chipor tusga kiradi, ulardan tayyorlangan sharobning ta'mi nohush bo'ladi. Zamburug' tokning hamma yashil organlarini zararlaydi. Kasallik yashil organlari bilan birga zararlangan meva rivojlanishini to'xtadi, qo'ng'irlashadi, qattiqlashadi va quriydi. Kechroq bir tomonlama zararlangan meaning qobig'i rivojlanishdan to'tagani uchun yorilib ketadi, urug'i ko'rinib qoladi. Namgarchilik bo'lgan paytlarda bunday mevalarga har xil safrofit zamburug'lar tushib, uni chiritib yuboradi. Natijada hosil sifati pasayib ketadi. Zamburug' faqat epidermis xujaylariga kirib ozuqa moddalarni so'rib oziqlanadi. Kasallik Shimoliy va Janubiy Amerika, G'arbiy Yevropa, Osiyo, Afrika, MDHda, Ukraina, Moldaviya, Kavkaz orti mamlakatlari va Markaziy osiyoda tarqalgan. O'zbekistonda oidium uzumning eng ashaddiy, keng tarqalgan va zararli kasalligi hisoblanadi.

**Kasallikning belgilari.** Tokning barcha yashil qismlari-barb, barg bandi, yashil novda, gul, to'pgul popugi, gajagi, uzumi va uzum boshlari zararlanadi. Barg zararlanganida, oldin uning ustki tomonida, dastlab oq, so'ngra oqish-kulrang, siyrak, nozik gifalardan tashkil topgan. Un yoki changga o'xshash g'ubor paydo bo'ladi, keyinchalik u bargning ostki tomoni, barg bandlari va novdalarga o'tadi. Keyinroq bargda kichik, quruq, qo'ng'ir, tarqoq nekrotik dog'lar paydo bo'ladi, ular bir-biri bilan qo'shib, to'rsimon rasm hosil qiladi. G'ubor zamburug'ning mitseliy, konidioforalari va konidiyayalaridan tashkil topadi. Yozilayotgan yosh barglar

burishib, nimjon bo'lib qoladi. To'pgul popugi gullashdan oldin yoki keyin zararlanadi, uzum tugishi kamayadi, xosil pasayadi yoki ko'pincha to'gul butunlay qurib qoladi. Bu ashaddiy kasallik O'zbekistonda uzum hosilini 50% gacha pasaytiradi, ba'zi mavsumlarda esa 100% gacha yo'qotilishigacha olib keladi. Kasallik rivojlanishi. Oidium bir mavsumda bir necha avlod beradi. Oidium baxorda barvaqt paydo bo'ladi, ammo u tok gullashi oldidan jadal rivojlanadi va bu rivojlanishi xavo juda isib ketishigacha va namlik kamayguncha davom etadi. Bahorda kasallikning birinchi belgilari shu kurtakdan o'sayotgan novdalarda paydo bo'ladi. Mitseliy kurtaklar bo'rtgan paytda yoki undan sal ertaroq, o'rtacha xavo xororati 10-11 C<sup>0</sup> ga yetganda o'sa boshlaydi va o'sayotgan yosh novda va yozilayotgan barglarni oq mitseliysi bilan o'rab oladi, ustida ko'p konidiyalar xosil qiladi va ular kasallikni birlamchi manbai bo'lib, tokning boshqa qismlarini zararlaydi.

**Kurash choralari.** Toklarning shamol yaxshi yuradigan, oftob yaxshi tegadigan joylarda o'stirish, shpalerlarga ko'tarib qo'yish lozim. Ularni o'z vaqtida xomtok qilib, ortiqcha novda va barglarini qirqib turish, ayniqsa kuzda zamburug' qishlaydigan zararlangan novdalar va bahorda birinchi paydo bo'lgan, zararlangan "bayroq novdalar" kesib olinishi va yoqib yuborilishi juda muhim, agar bu choralar qo'llanilmasa, boshqa kurash usullarining samarasi juda pasayadi. Toklar oralarini ag'darib, begona o'tlardan tozalab turish, zararli xasharotlar va boshqa kasalliklar bilan kurash choralari qo'llash talab etiladi.

Kimyoviy ximoya uchun xaligacha oltingugurt preparatlari yuqori samara bilan qo'llaniladi. O'zbekistonning quruq ob-havoli iqlimida kukun shaklida oltingugurt ishlatish yuqori samara beradi, yomg'irli ob-xavoda esa suspenziya qo'llash tavsiya qilinadi. Oltingugurt preparatlari tokni xavo xororati 25-30 C<sup>0</sup> bo'lganida kasallikdan yaxshi ximoya qilinadi, 18-20 C<sup>0</sup> da deyarli samara bermaydi. Xarorat 30 C<sup>0</sup> va undan yuqori xaroratda oltingugurtni ishlatish tavsiya qilinmaydi. Oltingugurt kukuni bilan birinchi ishlov bahorda tok gullashidan oldin, birinchi xomtokdan so'ng darhol berilishi lozim, keying ishlovlar, ob-havo sharoitlari va kasallik rivojlanishini xisobga olgan holda, xar 10-15 yoki 20-30 kunda, xammasi bo'lib bir mavsumda 7-10 ta ishlov beriladi. Oltingugurt kukunini yo'ldan olingan mayda chang bilan 1:1 nisbatda qo'shib ishlatish ham yaxshi samara beradi. Tok sug'orilishi lozim bo'lsa, ishlovni sug'orishdan so'ngra berish lozim.

Uncinula necator burill birinchi marta 1834-yilda Shvaynits tomonidan mahalliy amerikalik uzumlarda tasvirlangan. Uncinula nekatorning Angliyada birinchi qaydi 1845-yilda bo'lgan, u yerda 1847-yildan 1892-yilda kleistoteksiyalar topilgunga qadar Oidium tuckeri deb nomlangan. 1845 va 1850 yillarda orasida Uncinula necator Yevropa bo'ylab tarqaldi, u yerda Fransiyada 1847-yildan 1854-yilgacha uzum

hosildorligini 80%ga kamaytiradi. Oltinugurtni muntazam ravishda qo'llash kukunli chiriyotganni nazorat qilishi mumkinligi aniqlangan. Avstraliyada Uncinula necator qaydlari kamida 130 yil oldin mavjud bo'lgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Sheraliyev A “Umumiy va qishloq xo'jaligi fitopotologiyasi” T. “Talqin” (2008)
2. Agrobank tasvir nashriyot 2022
3. Agrokontinent kompaniyasi 2016 yil
4. Mojateplisa. Sayti
5. Wikopediya.ru sayti
6. AgroFlora.ru sayti